



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

O'QISH – CHET TIL O'RGATISHNING MAQSADI VA VOSITASIDIR

Abdug'anieva S.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq faoliyati turlaridan biri o'qishning tasnifi va o'quvchilarga o'qishni o'rgatish borasidagi metodist olimlarning fikrlari lingvodidaktik taxlil qilingan.

Tayanch so'zlar: xalqaro tajriba, baholash dasturi, diqqatning rivojlanishi, xotiraning o'sishi, leksik qiyinchilik.

ЧТЕНИЕ ЯВЛЯЕТСЯ ЦЕЛЬЮ И СРЕДСТВАМИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.

Абдуганиева С. - Преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами.

Аннотация: В данной статье анализируются лингводидактические взгляды методистских учёных на один из видов речевой деятельности в классификации чтения и обучения.

Ключевые слово: международный опыт, программа оценивание, развитие внимание, расширение памяти, лексическая сложность.

READING IS THE PURPOSE AND MEANS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING.

**Абдуганиева S. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University named after
Nizami**

Annotation: This article provides a linguistic didactic analysis of methodological scholars` views on classification of reading and its teaching.

Key words: international experience, evaluation program, development of attention, memory expansion, lexical challenges.

Mamlaktimizda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish; Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. Shunga muvofiq, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish salohiyatini oshirish borasida xalqaro tashkilotlar OESD (The Organization for Economic Co-operation Development- iqtisodiy xamkorlikni rivojlantirish tashkiloti) bilan PISA (Programme for International Student Assessment) - 2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) - bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har besh yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi etakchilik qilmoqda. Ushbu etakchi davlat tomonidan mazkur loyiha bo'yicha xalqaro seminar va treyninglar tashkil qilindi, bizning mamlakatimizdan ham etakchi metodist

pedagoglar ushbu seminar treyninglarda qatnashib o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Hozirda ular mamlakatimizga loyiha bo'yicha o'zining o'rganganlarini tatbiq qilishmoqdalar.

Mamlakatimizning ushbu PIRLS-2021 xalqaro reytingida qatnashishi boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga mas'uliyatli vazifalar qo'ydi. Zero, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish salohiyatini yaxshilash va matn mazmunini tushunib o'qish, ularda ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, do'stlik rishtalarini bir-biriga bog'lash, ikki xalqni yanada bir-biriga yaqinlashtirish va o'zining kelgusidagi xizmatini ko'rsatishi kabi tasavvurlar rivojlanishiga undaydi.

Boshqa tillarni o'rganishda ona tili vositasi hisobga olinadi, chunki erta bolalikdan tevarak-atrofdagilarga taqlididan o'rganiladigan va shaxs tafakkuri rivojlanishida ushbu tilga suyaniladi. O'qishni o'rgatish jarayonida nutqiy faoliyatning etakchi turlaridan biri sifatida o'qishga jiddiy e'tibor qaratilishi zarur. Chunki o'qish nafaqat zaruriy ko'nikmalarning egallash vositasi, balki turli harakatlardagi ma'lumotlar manbasidir.

Kelgusi faoliyatdagi o'qishda olinadigan axborotdan foydalanishga mo'ljallangan klassifikatsiya (tasnif) butunlay boshqa mezonlarga asoslanadi. Ayni shundan tushunishning to'liqligi va aniqligi darajasini g'ayriixtiyoriy belgilash amalga oshadi.

Mamlakatimizda ham, xorijda ham o'qish muammosi bo'yicha qator tadqiqotlar bevosita o'qish jarayonining mohiyatini, uning zamiridagi mexanizmlarni, xorijiy tilda o'qishni egallashda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni yaxshi tushunib olish imkonini beradi. O'qishga o'rgatish muammosi mamlakatimiz va xorij tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan va tortib kelmoqda. A.P.Grizulinaning "O'qish xorijiy tilni o'rganishda juda muhim bo'lib, uning maqsadi fan va texnikaning turli sohalaridagi yutuqlar bilan tanishtirishdir. Bu narsa bizning asrimiz uchun ham zarur, chunki birorta mamlakat faqatgina o'z o'quvchilari, muhandislari, texniklari erishgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmaydi" [2], degan fikrlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.


J.J.Jalolovning qayd etishicha, "Xorijiy tilda o'qish o'quvchini boshqa xalqlarning madaniy, ilmiy va texnikaviy yutuqlari bilan tanishish, ularning ma'naviy olamiga kirib borish qobiliyati bilan qurollantiradi" [3].


M.L.Vaysburd va S.A. Bloxinalar o'qishni o'rganish — nafaqat xorijiy tildagi matnni

ovoz chiqarib to'g'ri o'qish malakasini egallash, balki undagi fikrni, g'oyani, faktlarni olishni, uni tushunish, olingan ma'lumotni baholay olish va undan foydalana olish demakdir, deb hisoblaydilar. Biroq XXI asr bo'sag'asida, mamlakatimizning Umumevropa jamiyatiga kirishi arafasida xorijiy tilni o'qitish konkretroq va maqsadga muvofiqroq bo'lib qoldi [1].

Matni tushunish jarayoni o'rganuvchining kelgusi hayotiy tajribasiga ta'sir etadi, deb qayd etamiz. Avvaldan mavjud bo'lganlariga qo'shiladigan mavjud bo'lganlariga qo'shiladigan yangi ma'lumot tushunish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'qish jarayonida qabul qilinadigan ma'lumot ma'lum bir mo'ljal (stsenariy) asosida quriladi, uning maqsadi—olingan axborotni yaxlit holda birlashtirishdir.

A.L.Leontev, I.A.Zimnyaya, G.V.Rogova va boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, nutqiy iroda va uni tushunish mexanizmlarida ma'lum o'xshashlik (analogiya) mavjud bo'ladi. Muallif matni olgach, belgilangan barcha ma'lumotni kitobxon ongiga etkazishga harakat qiladi, buning uchun esa gipotetik o'quvchiga tanish bo'lgan logik argumentatsiya qonunlari asosida o'z matnini tuzadi. Muallifning matn tuzishiga qarab, ya'ni uning tuzilishini tashkil etishi, ushbu matnning boshqalar tomonidan to'g'ri qabul etilishiga qarab, tushunishning ma'lum jihatlari va matnning struktur tashkil etilishi o'rtasidagi qonuniy aloqalar to'g'risida gapirish mumkin. “O'qish nutqiy faoliyat turi sifatida perspektiv–fikrlovchi mnemik faoliyat tarzida xarakterlanadi, amalga oshish tomoni esa analitik-sintetik xarakterga ega bo'ladi”, tushunish jarayoni esa – bu murakkab fikrlash faoliyati, xotirada eslab qolishdir [4]. Yuqorida bayon etilganlardan shunday muhim xulosaga kelish mumkin: metodist o'qituvchilar xorijiy tillarni o'rganishda o'qishning rolga nafaqat zarur ko'nikmalarni egallash vositasi, balki turli xarakterdagi ma'lumotlar manbai tarzida ham baho beradilar. Chet til o'qitish metodikasida ko'pgina tadqiqotchilar o'qish tularini alohida ajratib ko'rsatishgan (С.К.Фоломкина, И.М.Берман, В.А.Бухбиндер ва бошқалар) (1-rasm).





1.-расм. Ўқиш турлари.

O'qish turlari tasnifida S.K.Folomkina taklif etgan o'qishning kommunikativ tabiati aks etgan. O'qishning turli xil ko'rinishlariga mos tarzda S.K.Folomkina xorijiy tilda matnlarni o'qish bilan bog'liq qobiliyatlarning asosiy turlarini ajratadi:

-Kitob, jurnal, maqolani ko'rib chiqish, gap nima haqida borayotganini tushunish, ya'ni mavzu haqida eng umumiy tasavvurlarga ega bo'lish qobiliyati;

-Matn mohiyati bilan tanishish, uni tushunish, muallif g'oyasini aniqlab olish qobiliyati (biroq bu o'rinda o'quvchi har bir so'zning ma'nosini tushunishi, har bir faktni eslab qolishi shart emas, chunki bunday o'qish tanishuv xarakteriga ega bo'lib, kelgusida undan foydalanish yoki ma'lumotni uzatish ko'zda tutilmaydi);

-Xorijiy matndagi ma'lumotni imkon darajasida to'liq va aniq ola bilish qobiliyati.

Olima tomonidan o'qish jarayonida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan kelib chiqqan holda o'qish turlarini belgilaydi, ular maktabda ham, oliy ta'lim muassasasida ham ko'z yugurtirib qarab chiquvchi, tanishtiruvchi va o'rganuvchi o'qishga o'rgatish zarur hisoblanadi. Bu ko'rib chiqiladigan, tanishtiriladigan, o'rganiladigan o'qishdir.

O'quvchilar xorijiy tilda berilgan matnni o'qish jarayonida internatsional va yasama so'zlarga duch kelishadi. Ular bu so'zlarning ma'nosini tez fahmlab olishlari uchun albatta bular borasida tushuncha berilishi lozim. Chunki, ingliz va rus tillaridagi internatsional so'zlarning tovush va grafik shakllari orasidagi farqlar shu bilan izohlanadiki, grek yoki lotin tilidagi qaysidir so'z o'zlashtirilayotganda o'zining dastlabki ko'rinishini kam hollardagina saqlab qoladi; o'sha so'z o'zlashtirilayotgan tilning fonetik me'yorlari, grammatik qoidalari, so'z yasaliş modellari va semantik qonuniyatlariga muvofiq tarzda o'zgara boshlaydi. Assimilyatsiya jarayoni kechadi, ushbu shaklardagi o'xshashlik yoki farqlanish darajasi ayni shu jarayonning intensivligiga bog'liq bo'ladi [3]. Bu esa bir o'zakdan kelib chiqqan inglizcha

va ruscha so'zlar orasidagi yaqinlikni aniqlash uchun maxsus tahlil zaruratini keltirib chiqaradi. Masalan, inglizcha *technology* ona tilida va rus tilida *texnologiya* so'zlari aslida lotin tilidagi *maxorat*, *ustalik* ma'nolaridagi *techne* so'ziga borib taqaladi. Matnda *technology* so'zini uchratib, darhol uning internatsional so'z ekanini bilib olish oson emas, unga muvofiq muqobil so'zni axtarib topish, so'ngra to'g'ri tarjimani berish mumkin bo'ladi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'qish jarayonida o'quvchilar potentsial lug'atini boyitish bo'yicha ishlarning zarurligini ko'rsatadi. Chunki ingliz tilidagi matnlarda ko'pgina umumo'zakli so'zlar mavjud bo'lib, oquvchilarda ularni potentsial tarzda o'zlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Potentsial leksikani o'rgatish natijasida o'quvchi matn mazmunini anglab etishga ketadigan vaqtini tejaydi, binobarin, asosiy mazmunini tushunib o'qish jarayonini tezlashtiradi.

Адабиётлар.

1. Вайсбурд М.Л., Блохина С.А. Обучение пониманию иноязычного текста при чтении как поисковой деятельности // Иностранные языки в школе. - 1997. -№1. -С. 19.
2. Грызулина А.П. Обучение чтению научно-популярной литературы на английском языке. –М.:Высшая школа, 1978. – С. 7.
3. Джалалов Д. Д. Текст как объект и продукт обучения // Оптимизация обучения иностранному языку в педагогическом вузе. – Ташкент, 1989. – С. 27-29.
4. Леонтьев А.А. Психолингвистические и социолингвистические проблемы билингвизма в свете методики обучения неродному языку. М., 2004. –С. 26-27. –448 с.
5. Фоломкина С.К. Зависимость типов упражнений от видов чтения. - В сб.: Методические записки по вопросам преподавания иностранных языков вузе. - М., 1998. - С. 3-18.